Sovet davri ilmiy siyosati va Qori Niyoziy. Davlat siyosati va ilm-fan

Andijon davlat universiteti
Samatov Shoxruxbek Abduvaxobovich

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada Sovet Ittifoqi davrida shakllangan tarixshunoslik maktabining metodologik asoslari, tarixiy haqiqatga bo‘lgan yondashuvi, mafkuraviy nazoratning kuchi va ilmiy erkinlik chegaralari haqida tahliliy fikrlar beradi. Shuningdek, taniqli tarixchi olimlar fikrlari asosida ushbu davr tarixshunosligining afzalliklari va muammolari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Sovet tarixshunosligi, marksizm-leninizm, ideologiya, metodologiya, tarixiy haqiqat, siyosiy nazorat.

Soviet-Era Scientific Policy and Qori Niyoziy. State Policy and Science

Abstract: This scholarly article provides an analytical perspective on the methodological foundations of the historiographical school formed during the Soviet Union, its approach to historical truth, the power of ideological control, and the limits of academic freedom. Furthermore, it reveals the advantages and problems of this period's historiography, based on the opinions of prominent historians.

Keywords: Soviet historiography, Marxism-Leninism, ideology, methodology, historical truth, political control.

Научная политика советского периода и Кары-Ниязов. Государственная политика и наука

Аннотация: в данной научной статье представлены аналитические суждения о методологических основах историографической школы, сформировавшейся в советский период, о её подходе к исторической правде, силе идеологического контроля и границах научной свободы. Также на основе мнений известных учёных-историков раскрываются преимущества и проблемы историографии этого периода.

Ключевые слова: советская историография, марксизм-ленинизм, идеология, методология, историческая правда, политический контроль.

Sovet davrida O‘zbekistonda ilmiy siyosat va ilm-fan rivoji murakkab, ziddiyatli va mafkuraviy nazorat ostida kechgan jarayon bo‘lib, u asosan fan va texnika taraqqiyoti,

sanoatlashuv hamda kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgan edi. Bu davrda ilm-fanning rivojlanishi, ayniqsa, Toshmuhammad Qori-Niyoziy kabi mahalliy ziyolilar faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda, O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining shakllanishi va matematika, tabiiy fanlar sohasidagi yutuqlar bilan xarakterlanadi.

1. Sovet davri ilmiy siyosati: Asosiy yo‘nalishlar

Sovet hokimiyati Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekistonda ilm-fanni jadallik bilan rivojlantirishdan manfaatdor edi, ammo bu siyosat bir nechta omilga asoslangan:

Sanoat va Fan birligi: Ilm-fan ishlab chiqarish, kimyo, fizika-matematika va texnika fanlarini rivojlantirishga qaratildi.

Madaniy inqilob: Savodsizlikni tugatish, ommaviy ta’lim tizimini yaratish va milliy kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa bo‘lgan.

Urush yillari (1941-1945): Ilm-fan front maqsadlariga moslashtirildi, O‘zbekiston ilmiy tadqiqotlar markaziga aylandi.

Repressiyalar: 1930-yillarda va keyinchalik ko‘plab ziyolilar qatag‘on qilingan, bu esa ilm-fanning erkin rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan.

2. Qori Niyoziy: O‘zbekiston ilm-fani tashkilotchisi

Akademik Toshmuhammad Niyozovich Qori-Niyoziy (1897-1970) sovet davri O‘zbekistoni ilmiy-madaniy hayotining eng ko‘zga ko‘ringan arboblaridan biri bo‘lgan.

O‘zbek ilm-fani taraqqiyotiga chin dildan xizmat qilgan Toshmuhammad Qori-Niyoziy (1897- 1970) o‘zining “Hayot maktabi” nomli kitobida: “... kishining yoshi haqiqiy yil bilan emas, uning mundarijasi bilan o‘lchanadi” deb yozgan edi. Darhaqiqat, har bir zamonning fidoyi insonlari bo‘ladi. Ularning ezgu amallari, ilm yo‘lidagi zahmatli mehnatlari ko‘pchilikning e’tibori va e’tirofiga sazovor. Tarix sahifalariga mashhur matematik olim, pedagog, jamoat arbobi, professor (1931y.), o‘zbeklardan birinchi fizika-matematika fanlari doktori (1939y.), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi (1939y.), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1943y.), O‘zbekiston Fanlar akademiyasining birinchi prezidenti (1943-1947yy.), Mehnat Qahramoni (1967y.) sifatida muhrlangan Toshmuhammad Qori-Niyoziy ana shunday olimlar sirasiga kiradi. Hayot insonga berilgan bir in’omki, uning mundarijasida turli yo‘llar, ba’zan tekis, ba’zan o‘nqircho‘nqir joylar

bosib o‘tiladi, nohaqliklarga duch kelinadi, murakkabliklar, to‘siqlar yengilib, inson toblanadi. Bu jarayon tinimsiz harakatdagi charxpalak singari aylanadi. Qori Niyoziy so‘zlari bilan aytganda: “Ajoyib hikmat: falakning yoki, boshqacha ta’bir bilan aytganda, tarixning ulug‘vor charxi doimo aylanib turadi va tabiatda hech qanday kuch yo‘qki, uni to‘xtata olsa! Haqiqatda ham, u hech kimga itoat qilmaydi, chunki uning aylanishi bizga bog‘liq bo‘lmay, balki ob’ektiv qonuniyatdir.

Butun umrini va mehnat faoliyatini O‘zbekiston ilm-fani rivojiga baxshida qilgan Qori-Niyoziy 1897 yil 2 sentabrda Xo‘jandda kosib oilasida tavallud topdi. Toshmuhammad dastlab Xo‘jandda eski maktabda, keyin Farg‘ona shahridagi rus-tuzem maktabida o‘qidi. 1917 yilda yigirma yoshli QoriNiyoziy mazkur rus tuzem maktabi binosida Farg‘ona viloyatidagi birinchi o‘zbek sovet maktabini tashkil etdi va boshqardi. Tez orada ushbu maktab Turkiston hududida eng namunali maktabga aylanadi va mahalliy yoshlarni o‘ziga jalb etdi. Qori Niyoziy maktablar uchun aniq fanlardan, xususan matematika fanidan o‘zbek tilidagi darsliklarni yaratdi. 1920 yilda bu maktab Qo‘qon shahridagi Dorul – muallimin ta’lim-tarbiya kursi bilan qo‘shilib, o‘sha davrdagi yirik bilim markazi – Farg‘ona viloyati pedagogika texnikumiga aylantirildi va QoriNiyoziy unga direktor etib tayinlandi (1930 yilda texnikum Farg‘ona pedagogika institutiga aylangan – N.M.). Uning birinchi bitiruvchilari haqida “Farg‘ona” gazetasining 1924 yil 26 may sonida “O‘n uch – o‘n uch ming bo‘lsin” sarlavhali maqola chop etilgan edi. Haqiqatan ham bu yigit-qizlar o‘z davrining mashhur olimlari, fan tashkilotchilari, pedagoglari, jamoat arboblari bo‘lib yetishdilar. Qori-Niyoziy 1926 yilda O‘rta Osiyo davlat universitetining fizika-matematika fakultetiga ikkinchi kursga o‘qishga qabul qilinadi. Olimning xotiralarida, u birinchi kursning umumiy mustaqil o‘qib, imtihonlar topshirganligi, ikkinchi kurs auditoriyasiga kirganda talabalar orasida 1ta o‘zbek bo‘lganligi (Bu talaba kelgusida fizika matematika fanlari doktori, professor, Tojikiston Fanlar akademiyasining 2-prezidenti (1957-1964) Sultan Umarovich Umarov edi – N.M.) qayd etilgan. Qori Niyoziy 1929 yilda o‘qishni muddatidan oldin tugatdi. 1926-1931 yillar davomida shu universitetda o‘qituvchi, professor, 1931-1933 yillarda rektor bo‘lib ishladi. 1934-1936 yillar davomida bir qator oliy o‘quv yurtlarida “Oliy matematika” kafedralarini boshqardi va asosiy kurslardan

ma'ruzalar o'qidi. T.N. Qori-Niyoziy ilmiy jamoatchilikda o'zbek matematika atamashunosligi, oliy va o'rta o'quv muassasalari uchun matematik adabiyotlar asoschisi hamda fan tarixi bo'yicha yirik mutaxassis sifatida tan olindi. Olim Oliy va elementar matematika bo'yicha bir qator tadqiqotlar yaratdi. Uning to'rt jilddan iborat "Matematika analizining asosiy kursi", "Analitik geometriya asosiy kursi" kitoblari o'z davrida muhim darslik vazifasini o'tadi. Toshmuhammad Qori-Niyoziy O'zbekistonda ko'pgina fan sohalariga birinchilardan bo'lib qo'l urgan va ilm-fan boshqaruvida turgan olim hisoblanadi. U hayotining 50 yildan ortiq davrini O'zbekiston ilm-fani rivojiga bahshida qildi, jamiyatning ijtimoiy va siyosiy hayotida faol ishtirok etdi, yoshlar tarbiyasiga katta e'tibor qaratdi. Murakkab 1937-1938 yillarda O'zSSR Xalq Maorifi komissari va bir vaqtning o'zida Fanlar qo'mitasida Prezidium raisi bo'ldi. 1939-1943 yillarda O'zSSR Xalq Komissarligi kengashi raisining fan, madaniyat va san'at bo'yicha muovini, ayni vaqtda SSSR Fanlar akademiyasining O'zbekiston filiali Prezidiumining raisi (1940-1943yy.) bo'lib ishladi. Bu davrda maktablar soni oshirilsada, ularni o'qituvchilar bilan ta'minlash masalasi oqsar, o'qituvchining bilim saviyasi talab darajasidan past edi. Qori-Niyoziy ta'lim sohasiga javobgar rahbar sifatida pedagogika institutlari tizimiga katta ahamiyat berdi. Qori-Niyoziyning fikricha, "o'qituvchida o'z kasbiga samimiy muhabbat bo'lishi kerak. O'qituvchining bilimi o'z shogirdlarining bilimidan doimo hech bo'lmaganda bir necha bosh yuqori turishi kerak, aks holda bolalar oldida uning obro'si bo'lmaydi, chunki kutilmagan savollarga o'qituvchi javob bera olmay qolishi mumkin. Holbuki, bola sezgir bo'ladi. O'quvchilar oldida yo'qotilgan obro'ni tiklash juda qiyin, hatto ba'zi vaqtlarda mumkin ham emas".

T. Qori Niyoziyning ko'plab tadqiqotlari 1967 yilda o'zbek va rus tillarida nashr etilgan 8ta jilddan iborat "Tanlangan asarlari"dan o'rin oldi. Olim uzoq yillar O'zbekiston tarixiy obidalari va madaniyatini himoya qilish jamiyati prezidiumining raisi muovini, bir qator ilmiy jamoat kengashlari va jamiyatlar a'zosi, "Fan va turmush" jurnali bosh muharriri (1939-1970 yy.) bo'lgan. T.N.Qori-Niyoziy ko'plab xalqaro anjumanlar va simpoziumlarda ishtirok etgan. 1954 yilda Xalqaro astronomiya jamiyati a'zosi, 1968 yilda Fanlar tarixi bo'yicha XII Xalqaro kongressda Bosh Assambleyasi a'zosi etib saylangan.

Yaponiya, Hindiston, Italiya, Polsha, Bolgariya, Afg‘oniston va boshqa ko‘plab chet el davlatlarida xizmat safarlarida bo‘lgan. Toshmuhammad Niyozovich Qori-Niyozov 1970 yilning 17 martida Toshkent shahrida vafot etdi. O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, Toshkentdagi ko‘chalardan biri uning nomi bilan atalgan. Mehnat Qahramoni unvoni (1967), Beruniy nomidagi O‘zbekiston davlat mukofoti (1970) va boshqa ko‘plab mukofotlar bilan taqdirlangan 2002 yilda Qori Niyoziyning xalqi oldidagi xizmatlari e’tirofi sifatida O‘zbekiston Respublikasining “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni berildi. 2007-yilda Qori-Niyozovlar oilasining tashabbusi va ko‘magida “Akademik Qori-Niyozov merosi” ilmiy-metodik markazi tashkil etilgan. Markaz mashhur olim yashagan uyda joylashgan. Markaz faoliyati matematika sohasidagi yosh olim va mutaxassislarning ijodiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Markaz matematiklar uchun tadqiqotlar olib borish, oliy va o‘rta ta’lim tizimida matematika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirishda ko‘mak beradi.

Xulosa: Sovet davri ilmiy siyosati O‘zbekistonda kuchli ilmiy infratuzilma (Fanlar akademiyasi, institutlar) yaratgan bo‘lsa-da, u mafkuraviy qolipga solingan edi. Qori Niyoziy esa ushbu tizimda mahalliy kadrlarni tayyorlash va matematika kabi fundamental fanlarni rivojlantirish orqali o‘zbek milliy ilm-fan maktabining poydevorini qurgan arbob sifatida qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qori Niyoziy T.N. Hayot maktabi (Esdalik lavhalari). Toshkent, 1970.

2. О порядке вывоза и размещения людских контингентов и ценного имущества. Постановление ЦК ВКП(б) и СНК СССР. 27 июня 1941 г. // Известия ЦК КПСС.-1990.-№6.-С.208. Постановление Совета по эвакуации «Об эвакуации Академии наук СССР». 13 июля 1941 г., Москва//https://docs.historyrussia.org/ru/nodes/300222-postanovlenie-soveta-po-evakuatsii-localenil-ob-evakuatsii-akademii-nauk-sssr-locale-nil-13-iyulya-1941-g-moskva. План эвакуации институтов академии наук СССР. 13 октября 1941 г.// https://docs.historyrussia.org/ru/nodes/ 180520-plan-evakuatsii-institutov-akademii-nauk-sssr-13-oktyabrya-1941-g.

3. Левшин Б.В. Академия наук СССР в годы Великой Отечественной войны (1941-1945 гг.). – М.: Наука, 1966.

4. Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны (1941-1945) в 3-х томах. Т.1981.